

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

MATXOSHIMOV NODIRJON SOYIBJONOVICH

**MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAGI AHOLI NOGIRONLIGI
PROFILAKTIKASI (Farg‘ona viloyati misolida)**

14.00.43 – Profilaktik tibbiyot

**TIBBIYOT fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

UO‘K: 616-036.86-053.8-057-07-084:614.29(575.122)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Matxoshimov Nodirjon Soyibjonovich

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi nogironligi profilaktikasi (Farg‘ona viloyati misolida)3

Matxoshimov Nodirjon Soyibjonovich

Профилактики инвалидности трудоспособного населения (на примере Ферганской области)27

Mathoshimov Nodirjon Soyibjonovich

Prevention of disability among the working-age population (on the example of the Fergana region).....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works58

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

MATXOSHIMOV NODIRJON SOYIBJONOVICH

**MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAGI AHOLI NOGIRONLIGI
PROFILAKTIKASI (Farg‘ona viloyati misolida)**

14.00.43 – Profilaktik tibbiyot

**TIBBIYOT fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tib2936 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati ikki tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti veb-sahifasi (www.fjsti.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fattaxov Nusratullo Xamidullayevich,
tibbiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc)

Rasmiy opponentlar:

Iskandarova Shaxnoza Tulkinovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Umarov Odil Maxmudovich
tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 712000, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi. 2-uy. Tel.: 243-06-62, Faks: 243-06-62, e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 712000, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi. 2-uy. Tel.: 243-06-62, Faks: 243-06-62, e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.Yu.Yuldashev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

M.T.Rasulova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

N.O.Axmadaliyeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, tibbiyot
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda so‘nggi yillarda sog‘liqni saqlash sohasida texnologik yuksalish tez sur‘atlarda rivojlanmoqda. Zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va ilg‘or davolash-dagnostika usullarining keng ko‘lamda qo‘llanilishi, shuningdek, yangi dori vositalarining yaratilishi bu sohadagi muhim o‘zgarishlarning asosiy xususiyatlaridan biridir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda butun dunyoda 58 million o‘limning 36 millioni, ya‘ni deyarli uchdan ikki qismi, yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, xususan, yurak-qon tomir kasalliklari, saraton, qandli diabet va surunkali o‘pka kasalliklari sababli yuz bergan. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, aholining tibbiy savodxonligini oshirish va xavf omillarini kamaytirish orqali yurak-qon tomir kasalliklarining taxminan 80%, 2-toifa diabetning 80% hamda surunkali o‘pka kasalliklarining 70-80% holatda oldini olish mumkin. Bu esa tibbiyot xodimlari uchun aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish borasida hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Jahonda nogironlik va nogironligi bo‘lgan shaxslar muammosi jamiyatning ijtimoiy tarkibini katta qismini tashkil qilishi bilan tavsiflanadi. Birlashgan millatlar tashkiloti ekspertlarining bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslar Yer shari umumiy aholisining 15%ni tashkil etadi. Hozirgi davrda jamoat salomatligi oldida turgan eng muhim masalalardan biri bu aholi salomatligini tavsiflovchi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o‘rtasida nogironlik ko‘rsatgichlari va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni, omillarni, ularning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish va ular asosida profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb, alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda tibbiyot sohasini rivojlantirish va sog‘liqni saqlash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali nogironlik holatlarini kamaytirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu maqsadda kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, tashxis qo‘yish, davolash va reabilitatsiya jarayonlarini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, irsiy va tug‘ma kasalliklarni erta aniqlash hamda oldini olishga oid qonunchilik va huquqiy amaliyotlarni yanada takomillashtirish, shuningdek, aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jumladan, erta nikohlar va qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu yo‘nalishda erishilgan innovatsion yutuqlar va to‘plangan tajribani chuqur tahlil qilish orqali tibbiyot sohasini yanada rivojlantirish, tibbiyot xodimlarini ilg‘or mamlakatlar darajasida tayyorlash va tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” O‘RQ-641-son Qonuni¹ 35-moddasida: “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning sog‘lig‘ini saqlash. Davlat nogironligi bo‘lgan

¹ O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” O‘RQ-641-son Qonuni

shaxslarning sog'liqni saqlash xizmatlaridan, sifatli va nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi tibbiy yordamdan boshqa fuqarolar bilan teng ravishda foydalanish huquqi amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur choralar ko'radi. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarga, fuqarolarga bepul tibbiy yordam ko'rsatishning davlat kafolatlari dasturi doirasida amalga oshiriladigan malakali tibbiy yordam ko'rsatilishi bo'yicha choralar ko'radi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy parvarish qilish barcha darajalardagi mavjud tibbiy xizmatlar doirasida, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi. Zo'rayib boruvchi shakldagi yoki yakuniy bosqichdagi bedavo kasalliklarga chalingan shaxslar bemorlarning jismoniy, ruhiy, hissiy va ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishni nazarda tutuvchi palliativ tibbiy parvarishlash xizmatlari ko'rsatilishi huquqiga ega bo'ladi" deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5006-sonli Farmoyishi¹da: nogironlikni aniqlash uchun tibbiy-ijtimoiy ekspertiza o'tkazishda qo'llanilayotgan mezonlar 40 yil avvalgi uslubiyotga asoslangan, mazkur sohada chuqur ilmiy tadqiqotlarning mavjud emasligi bu muammoni yanada kuchaytirmoqda deya ta'kidlangan. Shuningdek Farmoyishda nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, tug'ma va nasliy kasalliklarni barvaqt aniqlash hamda ularning oldini olish sohasidagi qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish, shuningdek, aholining keng qatlamlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni, shu jumladan, erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarning oldini olish ishlarini tubdan kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi topshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmoni²da: zamonaviy tibbiyot va ilm-fanning ilg'or yutuqlari, diagnostika, davolash va reabilitatsiyaning sifat standartlari asosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, sog'lomlashtirish xususiyatidagi chora-tadbirlarni yaxshilash, sog'lom va faol turmush tarzini olib borish madaniyatini targ'ib qilish; nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi, shu jumladan nogironlikni belgilashning samarali mezonlarini qo'llashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish kabi masalalar asosiy yo'nalish etib belgilangan.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada yordam beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-avgustdagi "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-5006-sonli Farmoyishi;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5270-sonli Farmoni;

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi bir necha yil ichida ko‘plab tadqiqotlar nogironlik va uning profilaktikasi muammolariga bag‘ishlangan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida, shu jumladan O‘zbekistonda nogironlik va uning profilaktikasiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bularga quyidagi mualliflar tomonidan: Azizov G.A. (2022). Pastki ekstremal arteriyalarining okklyuzion kasalliklari tufayli nogironligi bo‘lgan bemorlarni reabilitatsiya qilishning dolzarb masalalari, Askarova R., Iskandarova V. (2021). Bolalar orasida nogironlikning rivojlanishi va tarqalish sabablari, Vaninov A.S. (2019). Xavfli o‘sma kasalliklari sog‘liqni saqlash tizimining eng ustuvor tibbiy-ijtimoiy muammosi sifatida, Jamalova Sh., Yangiyeva N., Kuryazova Z. (2020). Oftalmik diabet bilan og‘rigan bemorlar uchun Toshkent shahrida birlamchi tibbiy yordam holati va nogironlik, Iskandarova Sh.T., Nabiyev A.M., Jamalova Sh.A. (2022). Toshkent shahrida oftalmik diabet bilan og‘rigan bemorlarga birlamchi tibbiy yordamni tashkil etish va nogironlik, Nishonova Yu.U., Rasulova D.K. (2024). Insuldan keyingi harakat buzilishlarini tiklanish dinamikasi, Pirmanova B. (2021). Nogiron farzandli oilalar muammosi, Rizayev J.A., Saidov M.A., Hasanjonova F.O. (2023). O‘zbekiston Respublikasi aholisi orasida yurak-qon tomir kasalliklarining zamonaviy tarqalish tendensiyalari va natijalari, Ruzibayev D.R., Sayitmuratov M.F. va boshq. (2023). Har xil yoshdagi shaxslar orasida birlamchi nogironlikning xususiyatlari, Tashkenbayeva E.N. va boshq. (2021). Surunkali yurak yetishmovchiligi - yetakchi tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammo sifatida, Puzin S.N. (2015). Qariyalarda nogironlikni oldini olish va hayot sifatini oshirishning tibbiy-ijtimoiy jihatlari, Belova R.V., Ostrovskiy A.M. (2014). Glaukoma bilan og‘rigan shaxslarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya qilish - nogironlikni oldini olishning samarali chorasidir, Xorkova O.V. (2021). Birlamchi nogironlik statistik ma‘lumotlarini tahlil qilish - uni oldini olish bo‘yicha choratadbirlarni rejalashtirishning asosi, Chechenin G.I., Kashirina E.J., Bryzgalina S.M. (2016). Qandli diabet tufayli nogiron bo‘lganlarni nogironlikdan himoya qilish va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyada axborot texnologiyalari, Kashirina E.J., Chechenin G.I., Shurgaya M.A. (2018). Qalqonsimon bez rak kasalligi sababli mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlik, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyaning kompleks yondashuvi va nogironlikning birlamchi profilaktikasini optimallashtirish, Abdrakhmanova Z.B. (2018). Mehnatga layoqatli yoshdagi aholida ishlab chiqarishdan tashqari travmatizm tarqalishi va uning oldini olish (Janubiy Qozog‘iston viloyati misolida), Petelskiy Yu.V., Surmach M.Yu. (2017). Grodno viloyatida miya qon aylanishining o‘tkir buzilishlarini oldini olish bo‘yicha yangi tashkiliy yondashuvlar, Abdrakhmanova Z.B. (2018). Qozog‘iston Respublikasi aholisi orasida travmatizmning dolzarb muammolari, Artyushina L.P. (2021). Mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlar hayot sifatini oshirish, Basharova A.V., Penina G.O., Safronova E.V. (2018). 2013–2017 yillarda Boshqirdistondagi

mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birlamchi nogironlik ko'rsatkichlari dinamikasi, Beybalayeva T.Z., Yaxin K.K. (2020). Ruhiiy kasalliklar sababli mehnatga layoqatli aholining nogironligi bo'yicha dolzarb masalalar, Berg A.V. (2022). Boshqirdistonda mehnatga layoqatli yoshdagi aholida periferik asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik, Vladimirova O.N. (2020). Rossiya Federatsiyasida nogironlik ko'rsatkichlari tahlili, Voloshenyuk N.I. (2020). Orenburg viloyatida ruhiy buzilishlar va xulq-atvor buzilishi sababli kasallanish va nogironlik ko'rsatkichlari, Glushchenko V.A., Irkliyenko E.K. (2019). Yurak-qon tomir kasalliklari - sog'liqni saqlash tizimining eng muhim muammolaridan biri, Jaqsibekova G.K., Bermagambetova G.N. (2021). 2019-2020-yillarda Qozog'iston Respublikasida jarohatlar, nogironlik va jarohatlar oqibatidagi o'lim ko'rsatkichlari kabi mavzularda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot va dissertatsiya ishlarini misol keltirish mumkin.

O'zbekistonda, xususan, Farg'ona viloyatida mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda nogironlik profilaktikasi tizimini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi miqyosida, xususan, Farg'ona viloyatidagi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlik profilaktikasi masalalariga qaratilgan keng qamrovli ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan.

Bugungi kunda davolashning zamonaviy texnologiyalari, vositalari va usullarining tatbiq etilishi natijasida aholida nogironlikning oldini olishga qaratilgan profilaktika choralari samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №012000258 "Farg'ona vodiysida yashovchi aholining turmush sharoiti va salomatligini yaxshilash bo'yicha donozologik kompleksni ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi nogironligi profilaktikasi va uning shakllanish qonuniyatlarini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlikga sabab bo'luvchi omillarni, shu jumladan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarining ta'sirini o'rganish;

nogironlikning kasallik sinflari bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilish va 2050 yilgacha asosiy kasalliklar uchun nogironlik dinamikasi prognozlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

yosh xususiyatlari va nogironlik ko'rsatkichlaridagi farqlarni hisobga olgan holda profilaktika choralarining jismoniy faolligi va mehnatga layoqatli aholining sog'lig'iga ta'sirini ilmiy asoslash;

birlamchi nogironlik ehtimolini tahlil qilish va ushbu ma'lumotlardan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va profilaktika choralarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun foydalanish.

Tadqiqotning obykti sifatida Farg'ona viloyat Bosh tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasining 2010-2020-yillardagi arxiv materiallari ma'lumotlari natijalari xizmat qildi.

Tadqiqotning predmeti sifatida birlamchi hisob materiali bo'lib "1-nogironlik shakli" xizmat qildi. Farg'ona viloyatidagi mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo'lgan shaxslar va ular orasida nogironlikni tarqalishi, darajasi, uning yosh, jins guruhlari va yashash joyi hisoblandi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ko'p bosqichli tasodifiy tanlov usuli, retrospektiv, matematik modellashtirish, ekspert baholash va statistik tahlil hamda ishchanlik indeksi, surunkali kasallanish indeksi va mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salomatligi indeksi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida birlamchi nogironlik profilaktikasi bo'yicha prognozlashning algoritmi morfofunktsional ko'rsatkichlari yordamida takomillashtirilgan;

sog'liqni saqlash va ijtimoiy qo'llab quvvatlash sohasida resurslarni strategik rejalashtirishda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'rtasida nogironlikning vujudga kelish ehtimoli va uning prognozi 2050-yilgacha bo'lgan davr uchun shakllantirilgan;

ilk marotaba mehnatga layoqatli yoshdagi aholi birlamchi nogironligi profilaktikasi maqsadida ishchanlik, surunkali kasallanish va salomatlik ko'rsatkichlari ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilgan;

mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlikka ta'sir etuvchi endogen (natijaviy) omillar o'rtasidagi funktsional bog'liqlik isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Farg'ona viloyatida 2010-2020-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida birinchi marta nogiron deb topilganlarning (BNT) eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilda 5408 kishini yoki 2017-yilga nisbatan 34,8%, 2017-yilda esa bu ko'rsatkich keskin oshgan holda 4013 kishini yoki 2016 yilga nisbatan 51,1%ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar sub'ektiv omillar ta'siri ostida ortib, ya'ni 2017-yildan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasi ekanligi aniqlangan;

kasallik sinflari bo'yicha 10 yillik dinamika tahlili shuni ko'rsatdiki, kuzatuvning barcha yillarida 1-o'rinni xavfli o'smalar tufayli nogironlik egallab, o'rtacha 14,9%ni, 2-o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 14,8%ni, 3-o'rinni ruhiy kasallik tufayli nogironlik 12,4%ni, 4-o'rinni asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 8,7%ni, 5-o'rinda esa jarohatlar tufayli nogironlik 8,3%ni tashkil etdi;

mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlik kasallik sinflari yosh, jins guruhlari bo'yicha tahlil qilinganda xavfli o'smalar tufayli nogironliklar eng yuqor

ko'rsatgichi 45-49 yoshda 20,8%, 50-54 yoshda 24,6%ni, qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik eng yuqori ko'rsatgichi 45-49 yoshlarda 31,8%, 50-54 yoshda 36,0%ni, ruhiy kasallik tufayli nogironlik 30-34 yoshda 18,6%, 35-39 yoshda 16,4%ni, asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik 50-54 yoshda 18,8%, 55-59 yoshda 19,6%ni, jarohatlar tufayli nogironlik esa 45-49 yoshda 13,8%, 50-54 yosh guruhlari orasida o'rtacha 16,4%ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatgichlar aholi orasida kasallanish, jumladan, nogironlikni oldini olish bo'yicha yuqoridagi aniqlangan kasallik sinflari hamda yosh guruhlariga birlamchi tibbiy-sanitariya bo'g'inida asosiy e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatilgan;

2016-2018-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birinchi marta nogiron bo'lish xavfi eng yuqori darajaga yetgani kuzatildi: bu ko'rsatkich 0,0012 dan 0,0025 oralig'ida bo'lib, o'rtacha har bir kattalar aholisiga nisbatan 0,0018 ni tashkil etdi. Qayta nogironlik ehtimoli esa 2016 - 2019-yillarda 0,0050 dan 0,0058 oralig'ida o'zgarib, o'rtacha ko'rsatkich 0,0055 ga yetgani aniqlangan;

nogironlik bo'yicha prognoz natijalariga ko'ra, 2030-yilda bu ko'rsatkich 5802 kishiga, 2040-yilda 6431 kishiga, 2050-yilda esa 7060 kishiga yetishi taxmin qilingan;

2015-yildan 2019-yilgacha Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli aholi soni 5,7 % ga, mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlar soni esa 30% ga oshdi. Shu bilan birga, ishchanlik indeksi (50% ga) sezilarli darajada kamayishi isbotlandi;

surunkali kasalliklarning o'sishi mehnatga layoqatli yoshdagi aholining o'sishidan oshib bormoqda, bu surunkali kasalliklar yukining oshishini ko'rsatadi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining salomatlik indeksi ham biroz kamaydi, bu umumiy salomatlikning yomonlashishini olib kelishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan yondashuvlar va usullar, ilmiy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mushtarakligi, o'tkazilgan tekshiruvlarda uslubiy yondashishning monandligi, tadqiqot uchun materiallarning yetarliligi, zamonaviy statistik tekshirishlar yordamida tahlil qilinganligi, olingan natijalarni jahon va mamlakatimizdagi ma'lumotlar bilan solishtirma o'rganilganligi, olingan xulosa hamda natijalarning ishonchli indekslar orqali tasdiqlanganini bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy iqtisodiy sharoitda aholi orasida nogironlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, profilaktik ishlarni takomillashtirish va kasallikni oldini olish borasida yangi zamonaviy baholash tizimlarini joriy qilish va ushbu holat haqida monitoring ishlarini yangi bosqichga chiqarish, tibbiyot xodimlarini malakasini oshirishda ilmiy asoslangan zamonaviy boshqaruv usullari va kasallikni oldini olish borasida yakka va populyatsion modellarini ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Farg'ona viloyatida nogironlikning shakllanishi va tarqalish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat bo'lib, bu turli kasalliklarning nogironlikka ta'sirini chuqurroq tushunishga imkon berdi. Shuningdek, ishlab chiqilgan indekslar va prognozlar nogironlikni baholash va prognoz qilish uchun yangi metodologik yondashuvlarni yaratdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aholi birlamchi nogiron deb topilgan shaxslar ma'lumotlari keltirilgan "Mehnatga layoqatli yoshdagilarni birlamchi nogironligini o'rganish kartasi" yosh, jins, nogironlik guruhlari hamda kasallik sinflari bo'yicha o'rganilib, 2010-yil Farg'ona shahar ma'lumotlari taqqoslandi va tahlil qilish, profilaktika ishlarini yaxshilash va aholining tibbiy malaniyatini populyatsion uslublarda surunkali kasalliklarni oldini olish, tibbiy-tashkiliy va reabilitatsion-profilaktik faoliyatga ajratilayotgan mablag'lardan adekvat va samarali natija olish, ularning maqsadli ishlatilishi bilan izohlangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati Farg'ona viloyatida nogironlik dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar taqdim etishdan iborat bo'lib, bu sog'liqni saqlash resurslarini va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yaxshiroq rejalashtirishga yordam beradi. Taklif qilingan indekslar va prognozlar nogironlik tuzilmasidagi o'zgarishlarga samarali javob berish uchun maqsadli profilaktik dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqishda qo'l keladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi nogironligi profilaktikasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

birinchi ilmiy yangilik: mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida birlamchi nogironlik profilaktikasi bo'yicha prognozlashning algoritmi morfofunktsional ko'rsatkichlari yordamida takomillashtirilgani bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2021-yil 4-noyabrda №8n-r/1036-son bilan tasdiqlangan "Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlikni prognozlash algoritmlari" nomli uslubiy tavsiyanomasi mazmuniga singdirilgan. Mazkur taklif Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 2024-yil 19-sentyabrdagi 183-sonli buyrug'i bilan amaliyotiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* mazkur ko'rsatkichlar aholi orasida kasallanish, jumladan, nogironlik profilaktikasi bo'yicha aniqlangan kasallik sinflari hamda yosh guruhlari birlamchi tibbiy-sanitariya bo'g'inida asosiy e'tiborni qaratish lozimligini ko'rsatadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* nogironlik nafaqasini olish huquqiga yoshidan qat'iy nazar Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo'lmagan, Agentlik tomonidan I- yoki II-guruh nogironligi bo'lgan har bir shaxsga sarflanadigan 920000 so'm pensiya mablag'lari aholi orasida nogironlik profilaktikasi hamda nogironlik ulushini kamaytirish orqari byudjet mablag'lari iqtisod qilinadi;

ikkinchi ilmiy yangilik: sog'liqni saqlash va ijtimoiy qo'llab quvvatlash sohasida resurslarni strategik rejalashtirishda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'rtasida nogironlikning vujudga kelish ehtimoli va uning prognozi 2050 yilgacha bo'lgan davr uchun shakllantirilgani bo'yicha takliflar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2021-yil 4-noyabrda №8n-r/1036-son bilan tasdiqlangan "Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlikni prognozlash algoritmlari" nomli uslubiy tavsiyanomasi mazmuniga singdirilgan. Ushbu taklif Farg'ona viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 2024-yil 19-sentyabrdagi 183-sonli buyrug'i bilan amaliyotiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* mehnatga layoqatli aholi orasida qayta nogiron bo'lish ehtimollik ko'rsatkichini yuqori

eganligi Farg‘ona viloyatida ushbu yosh guruhi aholining xavfli guruhga kirishidan guvohlik beradi, mazkur muammoni hal qilish uchun tibbiy-ijtimoiy ekspertizasi komissiyasi tomonidan har bir mehnatga layoqatli yoshdagi nogironligi bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish bo‘yicha individual dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* nogironlik nafaqasini olish huquqiga yoshidan qat‘iy nazar Qonunda belgilangan shartlarga va me‘yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo‘lmagan, Agentlik tomonidan I- yoki II-guruh nogironligi bo‘lgan har bir shaxsga sarflanadigan 920000 so‘m pensiya mablag‘lari aholi orasida nogironlik profilaktikasi hamda nogironlik ulushini kamaytirish orqari byudjet mablag‘lari iqtisod qilinadi;

uchinchi ilmiy yangilik: ilk marotaba mehnatga layoqatli yoshdagi aholi birlamchi nogironligi profilaktikasi maqsadida ishchanlik, surunkali kasallanish va salomatlik ko‘rsatgichlari ilmiy asoslangan holda ishlab chiqilgani bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 2021-yil 4- noyabrda №8n-r/1036-son bilan tasdiqlangan “Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlikni prognozlash algoritmlari” nomli uslubiy tavsiyanomasi mazmuniga singdirilgan. Ushbu taklif Farg‘ona viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasining 2024-yil 19-sentyabrdagi 183-sonli buyrug‘i bilan amaliyotiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* jismoniy faollik indeksini sezilarli darajada kamayishi, shuningdek, surunkali kasalliklarning o‘shishi mehnatga layoqatli aholining o‘shishidan oshib borishi surunkali kasalliklar yukining ortishi, bu esa mehnatga layoqatli yoshdagi aholining salomatlik indeksini kamayishiga, bu umumiy salomatlikning yomonlashishini ko‘rsatadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* nogironlik nafaqasini olish huquqiga yoshidan qat‘iy nazar Qonunda belgilangan shartlarga va me‘yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun zarur ish stajiga ega bo‘lmagan, Agentlik tomonidan I- yoki II-guruh nogironligi bo‘lgan har bir shaxsga sarflanadigan 920000 so‘m pensiya mablag‘lari aholi orasida nogironlik profilaktikasi hamda nogironlik ulushini kamaytirish orqari byudjet mablag‘lari iqtisod qilinadi;

to‘rtinchi ilmiy yangilik: mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlikka ta’sir etuvchi endogen (natijaviy) omillar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik isbotlangani bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan 2021-yil 4-noyabrda №8n-r/1036-son bilan tasdiqlangan “Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlikni prognozlash algoritmlari” nomli uslubiy tavsiyanomasi mazmuniga kiritilgan. Ushbu taklif Farg‘ona viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasining 2024-yil 19-sentyabrdagi 183-sonli buyrug‘i bilan amaliyotiga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Farg‘ona viloyati uchun uning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda taqdim etilgan ma’lumotlar va prognozlar, nogironlikka olib keladigan kasalliklarning profilaktikasi bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va kelajakda nogironlik strukturasi va tarqalishidagi o‘zgarishlarga samarali javob beradigan ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalarni takomillashtirish zarurligini nazarda tutadi. *Iqtisodiy samaradorligi:* nogironlik nafaqasini olish huquqiga yoshidan qat‘iy nazar Qonunda belgilangan shartlarga va me‘yorlarga muvofiq davlat pensiyasini tayinlash uchun

zarur ish stajiga ega bo'lmagan, Agentlik tomonidan I- yoki II-guruh nogironligi bo'lgan har bir shaxsga sarflanadigan 920000 so'm pensiya mablag'lari aholi orasida nogironlik profilaktikasi hamda nogironlik ulushini kamaytirish orqari byudjet mablag'lari iqtisod qilinadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Nogironlik tibbiy muammo sifatida**" deb nomlangan birinchi bobida tibbiyot, shu jumladan, nogironlikning demografik va kasallanish ko'rsatkichlari bilan birgalikda jamiyat salomatligining tavsivlovchi asosiy ko'rsatkichlari ekanligi haqida aniq ma'lumotlar berilgan. O'pka sili, xavfli o'sma kasalliklari, ko'z kasalliklari, quloq kasalliklari, nafas olish tizimi kasalliklari, asab tizimi kasalliklari, qon aylanish tizimi kasalliklari, endokrin kasalliklari, tayanch-harakat tizimi kasalliklari, oshqozon-ichak kasalliklari, ruhiy kasalliklari va travmatologik kasalliklari natijasida birlamchi va umumiy nogironlikni kelib chiqishi, uning ko'rsatkichlari, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida uning oqibatlari haqida turli davlatlardagi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Davolash-profilaktika muassasalarining samaradorligi yaxshilash, profilaktika ishlarini takomillashtirish orqali surunkali kasalliklarni faol davrini qisqartirish, o'lim va nogironlik ko'rsatkichlarini kamaytirishi mumkin.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqotni tashkil etish va uslubiyoti**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot bosqichlari, qo'llangan usullar va materiallarining tahlili, tadqiqot materiallarining tavsifi keltirilgan.


Birinchi bosqichda yetakchi ilmiy-amaliy jurnal va nashrlarda chop etilgan 150 dan ortiq tadqiqot natijalari o'rganilgan, respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasi materiallari hamda Farg'ona viloyati Bosh tibbiy-ijtimoiy ekspertiza komissiyasining 1-nogironlik shakli o'rganildi va tahlil qilingan va birlamchi

nogiron deb topilganlarning umumiy kontingenti 40635 nafar: shundan, mehnatga layoqatli yoshdagilar 38419 nafar, pensiya yoshidagilar 2216 nafari yosh, jins guruhlari va yashash joyi bo'yicha shakllanish qonuniyatlari o'rganilgan va tahlil qilingan.

Ikkinchi boshqichda Farg'ona viloyatidagi katta yoshdagi va mehnatga layoqatli aholining birlamchi nogironlik strukturasi 2010-2020-yillar bo'yicha tahlil qilingan, kasalliklar sinfi bo'yicha birlamchi nogironlikning 2010-2020-yillardagi strukturasi tahlil etilgan.

Uchinchi bosqichda Farg'ona viloyati Farg'ona, Qo'qon shaharlari, Bog'dod, Quva, Beshariq tumanlararo TIEK 2020-yilda birlamchi nogiron deb topilgan jami 782 nafar nogironligi bo'lgan shaxslar ma'lumotlari keltirilgan "Mehnatga layoqatli yoshdagilarni birlamchi nogironligini o'rganish kartasi" yosh, jins, nogironlik guruhlari hamda kasallik sinflari bo'yicha o'rganilib, 2010-yil Farg'ona shahar ma'lumotlari taqqoslandi va tahlil qilingan, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining nogiron bo'lish ehtimoli va uni 2050-yilga prognozi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi birlamchi nogironligi tahlili va uning shakllanish qonuniyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobida Farg'ona viloyatida 2010-2020-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida birlamchi nogiron deb topilganlarning o'rtacha yillik soni 3492,6 kishini tashkil etdi. Tadqiqot o'tkazilgan yillar orasidagi natijalarga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich 2018-yilda 5408 kishini yoki 2017-yilga nisbatan 34,8% o'sish sur'atini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkich 2016-2017-yillar oralig'ida tahlil etilganda, 2016-yilda 2656 kishini tashkil yetgan bo'lsa, 2017-yilda esa bu ko'rsatkich keskin oshgan holda 4013 kishini yoki 51,1%ni tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogiron deb topilganlar tarqalish dinamikasi (abs.son).

Farg‘ona viloyatida 2019-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlarning yashash joyi, yosh va jins guruhlari bo‘yicha tarqalish darajasi quyidagicha aks etdi: birlamchi nogiron deb topilganlar 18-19 yoshda - 52 kishi (1,1%); 20-24 yoshda - 171 (3,7%); 25-29 yoshda - 328 (7,1%); 30-34 yoshda - 488 (10,5%); 35-39 yoshda - 544 (11,8%); 40-44 yoshda - 629 (13,6%); 45-49 yoshda - 747 (16,1%); 50-54 yoshda - 981 (21,2%); 55-59 yoshda - 689 (14,9%) (1-jadval).

1-jadval

Farg‘ona viloyatida 2019-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlikning yosh, jins va yashash joyi bo‘yicha tarqalish darajasi

Yosh guruhi	Jami		shu jumladan,				Shahar aholisi						Qishloq aholisi					
			Erkaklar		Ayollar		jami		Erkaklar		Ayollar		Jami		Erkaklar		Ayollar	
	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%	abs. son	%
18-19	52	1,1	29	1,1	23	1,2	20	1,1	13	1,2	7	0,9	32	1,2	16	1,0	16	1,3
20-24	171	3,7	99	3,7	72	3,6	64	3,4	41	3,7	23	2,9	107	3,9	58	3,8	49	4,1
25-29	328	7,1	172	6,5	156	7,9	136	7,2	72	6,5	64	8,2	192	7,0	100	6,5	92	7,7
30-34	488	10,5	243	9,2	245	12,4	159	8,4	84	7,6	75	9,6	329	12,0	159	10,3	170	14,2
35-39	544	11,8	259	9,8	285	14,4	198	10,5	93	8,4	105	13,5	346	12,6	166	10,7	180	15,1
40-44	629	13,6	306	11,5	323	16,4	260	13,8	131	11,8	129	16,5	369	13,5	175	11,3	194	16,2
45-49	747	16,1	341	12,8	406	20,6	316	16,7	147	13,3	169	21,7	431	15,7	194	12,6	237	19,8
50-54	981	21,2	516	19,4	465	23,5	423	22,4	215	19,4	208	26,7	558	20,4	301	19,5	257	21,5
55-59	689	14,9	689	26,0	-	-	313	16,6	313	28,2	-	-	376	13,7	376	24,3	-	-
Jami	4629	100	2654	100	1975	100	1889	100	1109	100	780	100	2740	100	1545	100	1195	100

2-jadval

Farg‘ona viloyatida 2019-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlikning yashash joyi, yosh va jins guruhlari bo‘yicha tarqalish darajasi (har ming aholiga nisbatan)

Yosh guruhi	Jami	shu jumladan,		Shahar aholisi			Qishloq aholisi		
		Erkak	Ayol	jami	Erkak	Ayol	Jami	Erkak	Ayol
18-19	5,1	2,8	2,2	1,9	1,3	0,7	3,1	1,6	1,6
20-24	5,3	3,1	2,3	2,0	1,3	0,7	3,3	1,8	1,5
25-29	9,1	4,8	4,3	3,8	2,0	1,8	5,3	2,8	2,5
30-34	15,0	7,4	7,5	4,9	2,6	2,3	10,1	4,9	5,2
35-39	20,4	9,7	10,7	7,4	3,5	3,9	13,0	6,2	6,8
40-44	26,3	12,8	13,5	10,9	5,5	5,4	15,4	7,3	8,1
45-49	33,7	15,4	18,3	14,2	6,6	7,6	19,4	8,7	10,7
50-54	51,7	27,2	24,5	22,3	11,3	11,0	29,4	15,9	13,5
55-59	80,8	80,8	-	36,7	36,7	-	44,1	44,1	-
Jami	21,9	12,6	9,4	8,9	5,3	3,7	13,0	7,3	5,7

Yuqoridagilarda ma'lumki, 18-19 yoshda nogironlar ulushi kam, chunki ushbu yosh guruhidagi aholining aksariyati 16-17 yoshda bo'lganida allaqachon nogironlik bo'yicha qayta ko'rikdan o'tgan va 50-54 yoshgacha bo'lgan keyingi yosh guruhlari nogironlik ko'rsatkichi asta-sekin o'sib borganligi ma'lum bo'ldi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlarning yashash joyi bo'yicha tarqalish darajasi aksariyat hollarda shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi o'rtasida yuqoriligi ko'rinadi, ya'ni shahar aholisi o'rtasida 36,7%ni tashkil yetgan bo'lsa, qishloq aholisi orasida esa 44,1% yoki 7,4%ga yuqoriligini ko'rish mumkin. Bu esa qishloq aholisiga ko'rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Jins guruhlari bo'yicha nogironlikning tarqalish darajasi ayollarga nisbatan erkaklarda 3,2%ga yuqoriligi kuzatildi.

Mehnatga layoqatli aholi orasida birlamchi nogironlikning eng yuqori ulushini 50-54 va 55-59 yoshdagilar, mos ravishda 21,2 va 14,9 foizni tashkil etadi. Bu pensiya yoshi arafasida nogironlik guruhini olish istagi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlik kasallik sinflari bo'yicha 11 yillik dinamikasi o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kuzatuvning barcha yillarida 1-o'rinni xavfli o'smalar tufayli nogironliklar egallab, o'rtacha 14,9%ni, 2-o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 14,8%ni, 3-o'rinni ruhiy kasallik tufayli nogironlik 12,4%ni, 4-o'rinni asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 8,7%ni, 5-o'rinda esa jarohatlar tufayli nogironlik 8,3%ni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlik kasallik sinflari bo'yicha har 5 yillik dinamikasi, ya'ni 2010-2014 yillar va 2015-2019 yillar solishtirilganda, kuzatuvning dastlabki 5 yilligida 1-o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 16,5%ni, 2-o'rinni xavfli o'smalar tufayli nogironliklar egallab, o'rtacha 14,5%ni, 3-o'rinni ruhiy kasallik tufayli nogironlik 11%ni, 4-o'rinni jarohatlar tufayli nogironlik 8,5%ni, 5-o'rinda esa asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 8,2%ni tashkil etdi.

Keyingi 5 yillik, ya'ni 2015-2019 yillar tahlil natijalaridan ko'rinib turibdiki, 1-o'rinni xavfli o'smalar tufayli nogironliklar egallab, o'rtacha 14,3%ni, 2-o'rinni ruhiy kasallik tufayli nogironlik 13,7%ni, 3-o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 12,6%ni, 4-o'rinni asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 10,7%ni, 5-o'rinda esa jarohatlar va hazm organlari tufayli nogironlik 7,6%ni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval

Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogiron deb topilganlarning kasallik sinflari bo'yicha strukturasi dinamikasi (2010-2019yy.) (%)

№	Kasallik sinflari	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	O'rtacha yillik	
		%	%	%	%	%	%	%	%	%	%		Rangi
1	Sil kasalliklari	4,3	3,3	4,2	4,5	3,7	3,6	3,3	2,8	2,9	2,4	3,5	11

2	Xavfli o'smalar	11,6	14,2	16,3	15,4	17,9	16,2	16,9	13,1	12,7	12,4	14,9	1
3	Endokrin tizim kasalliklari	5,7	5,5	5,0	5,2	4,9	4,7	5,9	5,5	5,8	7,2	5,5	8
4	Qon kasallik-ri	1,3	1,4	1,5	1,3	1,4	1,3	1,1	1,0	0,4	0,7	1,1	16
5	Ruhiy kasal-lar	9,6	12,0	10,0	11,7	12,4	12,0	13,6	15,4	14,3	13,4	12,4	3
6	Nerv tizimi kasalliklari	7,8	9,5	8,8	8,0	6,7	7,0	11,1	12,0	13,9	9,7	8,7	4
7	Ko'z kasallik-ri	4,9	5,6	5,6	5,3	5,4	4,0	4,0	4,5	4,4	4,4	4,8	9
8	Quloq kasal-ri	1,0	1,7	1,8	1,7	2,3	3,1	2,0	1,6	1,3	0,8	1,7	15
9	Qon aylanish tizimi	18,6	15,9	16,0	16,7	15,5	16,1	11,6	10,7	9,8	14,8	14,8	2
10	Nafas organi kasalliklari	2,7	1,4	1,8	1,2	1,6	1,7	2,1	2,6	3,4	4,2	2,3	13
11	Hazm organlari kasalliklari	5,7	6,4	5,3	6,4	3,9	7,5	6,6	7,9	7,9	7,9	6,6	6
12	Siydik-tanosil organlari	2,8	2,4	3,7	3,3	3,9	3,0	3,2	2,7	2,9	2,7	3,1	12
13	Suyak-mushak tizimi kasal.	8,5	6,3	5,1	5,3	4,9	5,4	5,1	6,2	7,5	7,5	6,2	7
14	Jarohatlar	9,1	8,2	8,7	8,4	7,9	8,8	8,3	8,1	6,6	6,2	8,3	5
15	Boshqa kasalliklar	6,4	6,2	6,2	5,6	7,6	5,6	5,2	5,9	6,2	5,7	6,1	14
	Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	

Farg'ona shahrida 2010-yil hamda 2020-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlik kasallik sinflari bo'yicha qiyosiy tahlil qilinganda, 2010-yilda havfli o'sma kasalliklaridan nogironlik 20,6%ni tashkil yetgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatgiya 23,0%ga ortganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik 2010-yilda 22,4%ni tashkil etib, 2020-yilda esa mos ravishda 23%ga ko'payganligi aniqlandi. Keyingi o'rinlarda suyak-mushak sistema va qo'shuvchi to'qima kasalliklaridan nogironlik egallab, u 2010-yilda 14,4%ni, 2020-yilda esa 10,7%ni yoki 3,7%ga kamayganligi aniqlandi.

Farg'ona shahrida 2020-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlik kasallik sinflari bo'yicha tahlil qilinganda, nogironlikka olib keluvchi kasallik sinflari orasida 1-o'rinni xavfli o'smalar va qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik egallab, o'rtacha 23%, 2-o'rinni endokrin sistema kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 12,4%ni, 3-o'rinni suyak-mushak sistema va qo'shuvchi to'qima kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 10,7%ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning "**Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi birlamchi nogironligi ehtimolligi va uning prognozi**" deb nomlangan to'rtinchi bobida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida nogironlik holatlarining ehtimolligi tahlil qilingan. Farg'ona viloyati Bosh tibbiy-ijtimoiy ekspertisasi komissiyasiga (BTIEK) katta yoshdagi jami aholining 2016-2020 yillarda qilgan murojaati bo'yicha nogiron bo'lish ehtimolligi hisoblandi.

Nogiron bo'lish ehtimolini hisoblash uchun quyidagi Onlayn-kalkulyator formuladan foydalanildi, ya'ni

$$P(A) = \frac{m}{n}$$

bunda;

n – ushbu sinovning barcha mumkin bo‘lgan oddiy natijalarining umumiy soni;
m – A voqeaga nisbatan mos keladigan boshlang‘ich natijalar soni.

Quyidagi jadvalda Farg‘ona viloyatidagi 2016-2020 yillarda ro‘yxatga olingan jami katta yoshdagi nogironlar shu jumladan, ular orasidan birinchi marta nogiron deb topilganlar va qayta nogiron deb topilgan nogironlarning mutloq soni keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

Farg‘ona viloyatidagi 2016-2020-yillardagi katta yoshdagi nogironligi bo‘lgan shaxslar soni

Yillar	Jami katta yoshdagi aholi soni	Birinchi marta nogiron deb topilganlar soni	Qayta nogiron deb topilganlar soni	Jami nogironlar soni
2016	2523015	2762	12194	14956
2017	2555279	4343	11960	16303
2018	2593192	5870	12944	18814
2019	2629213	5770	13995	19765
2020	2666383	5484	13453	18937
Jami	15455180	26734	77253	103987

Birinchi marta nogiron deb topish ehtimolligi 2016 yildan 2018 yilgacha 0,0011 dan 0,0023 gacha oshgan (har bir katta yoshdagi kishiga mos yillar bo‘yicha). Ushbu ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida so‘ngi besh yil ichida o‘rtacha bir nafar katta yoshli kishi uchun nogiron bo‘lish ehtimolligi 0,0017 ni tashkil etdi (5-jadval).

5-jadval

Farg‘ona viloyatida 2016-2020 yillardagi katta yoshdagi aholi orasida nogiron bo‘lish ehtimolligi

Yillar	Nogiron bo‘lish ehtimolligi		
	Birlamchi	Qayta	Jami
2016	0,0011	0,0048	0,0059
2017	0,0017	0,0047	0,0064
2018	0,0023	0,0050	0,0073
2019	0,0022	0,0053	0,0075
2020	0,0021	0,0050	0,0071
O‘rtacha yillik ko‘rsatkich	0,0017	0,0050	0,0067

Bundan tashqari katta yoshdagi aholi orasida mehnatga layoqatli yoshdagilarning nogiron bo‘lish ehtimolligi hisoblandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birinchi marta nogiron bo‘lish ehtimolligi 2016-2018-yillarda eng yuqori, ya‘ni 0,0012 dan 0,0025 gacha bo‘lib, o‘rtacha 0,0018 ni tashkil etdi. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining qayta nogiron bo‘lish ehtimolligi umumiy aholiga nisbatan yuqori bo‘lib, 2016-2019-yillarda 0,0050 dan 0,0058 gacha tashkil etdi va o‘rtacha ko‘rsatkich 0,0055 ga teng bo‘ldi (6-jadval).

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholining nogiron bo'lish ehtimolligi

Yillar	Nogiron bo'lish ehtimolligi		
	Birlamchi	Qayta	Jami
2016	0,0012	0,0054	0,0066
2017	0,0018	0,0050	0,0069
2018	0,0025	0,0054	0,0078
2019	0,0024	0,0058	0,0083
2020	0,0022	0,0056	0,0080
O'rtacha yillik ko'rsatkich	0,0018	0,0055	0,0073

